XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 14-mart VII-17-37-3-45-K/26 G‘allaorol tumani

G‘allaorol tumani bo‘yicha 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalariga nisbatan oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-son “Mahalliy budjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori hamda G‘allaorol tuman soliq inspeksiyasining taklifiga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkasi boshqa shaharlar (boshqa aholi punktlari) alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im 300 000 so‘m, umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im 150 000 so’m belgilanganligi;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-son qaroriga asosan 2026-yil 1-yanvardan boshlab Xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati beriladi hamda mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman (shahar)lar budjetlariga yo‘naltirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo’limi hamda G‘allaorol tuman soliq inspeksiyasining hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining joriy yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tumanlar va shaharlar bo‘yicha 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalariga nisbatan oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha bergan takliflari inobatga olinsin.

4. G‘allaorol tumanida 2026-yil uchun mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

- 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalariga nisbatan oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash to‘g‘risida 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashi tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari hududiy soliq organiga taqdim etilishini ta’minlasin.

6. G‘allaorol tuman soliq inspeksiyasi 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qaror “G‘allaorol ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan uch oy o‘tib kuchga kirad.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari G‘allaorol tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (O.Mamirov) hamda ijrosini taminlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdujalilov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **UMAROV SHAKARBEK XABIBOVICH**

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2026-yil 14-martdagi
VII-17-37-3-45-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari

T/r	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		Tumanlarga belgilangan yig‘im miqdori	Oshiruvchi stavka (foizda)	2026-yil uchun belgilangan yig‘im miqdori
Viloyat markazi va boshqa shaharlardan tashqari boshqa aholi punktlarida				
1.	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	20%	360 000
2.	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	20%	180 000